BUYUK ADIB IQRORI

Nasiba Xo'janova Choriyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus yozuvchi Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asari tahlil qilingan. Shuningdek asarning ilmiy ahamiyati, yozilish tarixi va bevosita adibning islom dini bilan bog'liq qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Iymon, din, iqror, tavba, ijod, haqiqat, shaxs, urush

Аннотация: В данной статье проанализировано произведение русского писателя Льва Толстого «Исповедь». Также изложены научное значение произведения, история его создания и взгляды писателя, непосредственно связанные с исламскойрелигией.

Ключевые слова: вера, религия, исповедь, покаяние, творчество, истина, личность,война.

Annotation: This article analyzes the work "A Confession" by the Russian writer Leo Tolstoy. It also describes the scientific significance of the work, the history of its creation, and the writer's views directly related to the religion of Islam.

Keywords: Faith, religion, confession, repentance, creativity, truth, personality,war.

Buyuk rus yozuvchisi Lev Nikolaevich Tolstoy o'zbek kitobxoniga "bo'yi barobar kitob yozgan" adib sifatida tanish. Bu ulug' inson 82 yil umr ko'rdi, shundan 60 yildan ko'proq umrini ijodga bag'ishladi. Asarlari esa 90 jildga jamlangan. U g'oyat mashaqqatli va ziddiyatli ijod yo'lini bosib o'tdi. Tinimsiz izlanish, haqiqatni qidirish, xalq baxti va taqdiri haqida astoydil qayg'urish,

halovatsiz o‘y surish - bu ulug‘ yozuvchi ijodining asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Bugun yer yuzida Tolstoy asarlari yetib bormagan joy qolmadi. Har xil irqdagi, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi odamlar o‘z hayotlarining mushkul va murakkab damlarida Tolstoy asarlariga, uning boy va ko‘p qirrali ijodiga murojaat qiladilar. Lev Tolstoy hayotlik chog‘idayoq ulug‘ inson sifatida e’tirof etilgan edi. Uning ijodi butun insoniyatning badiiy taraqqiyotida olg‘a tomon qo‘yilgan bir qadam deyish mumkin. Uning shaxs sifatidagi muhim xislati - tafakkurining mustaqilligi va mislsiz jasorati!

“Iqrornoma” asari Sho‘ro davrida "bemavrid alahsirash" deb ellik yillab nashr etilmadi. Asarni o‘zbek tiliga 1997- yil O. Sharafiddinov tarjima qildi.

" Iqrornoma " hasbi hol janrida yozilgan asar. Jahon adabiyotida bunaqa asarlar unchalik ko'p emas. Jan Jak Russo, Oskar Uayd kabi yozuvchilar ijodida uchraydi. Ularning hammasida muallif inson faoliyatining eng murakkab jihatlarini yoritadi. Tolstoy "Iqrornomasi"ning muhim jihati shundan iboratki, u asarida qaysi muammo haqida mulohaza qilsa, doim o‘z hayoti misolida tahlil qiladi va biron marta o‘z aybini yashirishga, o‘zini pardozlab ko‘rsatishga urinmaydi. Masalan: u shunday yozadi: "Men urushda odam o‘ldirganman, yolg‘onchilik, o‘g‘irlik, zo‘rovonlik va har xil jinoyatlar qilganman" va yana aytadiki, "daxshatsiz, ijirg‘anmasdan, yurak zil ketmasdan shu yillarni eslay olmayman" deydi. Hech kim Tolstoychalik ichki dunyosini bu qadar shafqatsizlik bilan taftish qilmagan! Balki, uning buyukligi ham shundadir. U asarda inson umrining mazmuni haqida bosh qotiradi. Uning hayotida e'tiqod, dinning o‘rni va roli haqida teran mushohadalarni o‘rtaga tashlaydi. Insonning bu dunyoga kelib ketishida qanday ma'no bor? Umuman, Odamzod umrining mohiyati nima? Barcha buyuk mutaffakkirlar, faylasuflarni qiynagan bu ma'naviy muammolarga javob izlaydi. O‘zi o‘rtaga savol

qo‘yib, yana unga o‘zi javob berish mohir murabbiylarning usuli. Bu asarda shunday teran savollar va shunga yarasha munosib javoblarga duch kelamiz. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: O‘zbek adabiyotida ham shunga o‘xshash, shunga yaqin iymon tahliliga bag‘ishlangan asar bormi? Bor. Bu-Alixonto‘ra Sog‘uniyning "Turkiston qayg‘usi" asari. Ikkala asarning mushtarakligi shundaki, asar markazida turgan shaxs dunyo voqealarini sinchkovlik bilan kuzatadi. A. Sog‘uniy bu asarida tabiiy va taqlidiy iymon haqida o‘z falsafiy fikrlarini bayon qiladi. Tabiiy iymon bu- payg'ambarlar, xalq uchun qayg‘uradiganlar iymoni, taqlidiy iymon esa muqallab, ya'ni sharoit, zamon holiga qarab o‘zgaradigan, suyanib bo‘lmaydigan iymon. Bu asar ham boshdan - oyoq iymon tahliliga bag‘ishlangan. Bu ikkala asarni tahlil qilgan adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov bu asar haqida "Alixonto‘ra Sog‘uniyning iymon to'g'risidagi tahlillari dunyo adabiyotidagi eng chuqur tahlil Lev Tolstoy tahliliga yaqinlashib boradi" deb yozadi. Tolstoy bu asarini 51 yoshida yozadi, lekin asar mazmuni haqida 20 yoshlarida o‘ylay boshlaydi. U yozadi: "Men nimagadir ishonar edim, biroq nimaga ishonishimni so‘zlar bilan ochiq - ravshan ifodalab berolmas edim. Men Xudoga ham ishonganman, to‘g‘rirog‘i, Xudoni inkor etgan emasman, ammo qanaqa Xudoga ishonishimni aytib berolmas edim. Men Isoni ham, uning ta'limotini ham inkor etmadim, biroq bu ta'limotning mohuyati nimada ekanini bilmas edim" deydi. Ana shu mohiyatni, yashashning mazmunini dastlab ilmdan izlaydi va aytadiki, javob topa olmadimgina emas, balki amin bo‘ldimki, menga o‘xshab ilmdan javob izlagan boshqa odamlar ham hech narsa topolmagan ekanlar. Tolstoy umrining shu paytlarida hayot boshdan - oxir be'mani bir narsa va da'vosi yo‘q va hech qachon bo‘lmaydi degan fikrga kelgan. Inson nima qilmasin, qancha urinmasin, bari behuda degan fikr uni tark etmagan. Ellik yoshida uni o‘z- o‘ziga suiqasd qilishga undagan savol oddiy go‘dakdan

tortib, donishmand qariyagacha har bir odamning qalbidan o‘rin olgan eng oddiy savol: "Men nimaman?," Nima uchun yashayapman?" Ilmdan javob topa olmagach Tolstoy javobni real hayotdan izlay boshlaydi. Tevarak - atrofdagi odamlar hayotidan topmoqqa umid qiladi va shunday deydi: "Bu boshi berk ko‘chadan chiqishning birinchi chorasi bilmaslik. Uning ma'nosi shuki, hayot yovuz narsa ekanini va yashashning ma'nisizligini bilmaslik, anglamaslik kerak.

Ikkinchi chora hayotdan umidvor bo‘lmoqlikning imkoni yo‘qligini bilaturib, yorug‘ dunyoda odam farzandi uchun yeb- ichish va shodu xurramlik bilan yashash. (Mening doiramga mansub odamlarning ko‘pchiligi ana shu ikkinchi yo‘lni ma’qul ko‘radi deydi). Shu o‘rinda mashhur Sharq masalidan biri keltiriladi. Unda aytilishicha, sayyoh sahroda bir yirtqichga duch keladi. Undan qutulish maqsadida suvsiz quduqqa sakraydi. Quduq tubida esa uni ajdaho kutardi. Sayyoh nima qilishini bilmay quduq yorig‘idan o‘sib chiqqan butaga osiladi. Pastda ajdaho, yuqorida yirtqich. Butani esa atrofdan biri qora, biri oq sichqon kemira boshlaydi. Sayyoh muqarrar o‘lishini bilib tursa ham, buta bargidan tomchilab turgan asalni yalashga harakat qiladi. Bu yerda oq va qora sichqon insonni o‘lim sari eltayotgan kun va tundir. Muallif o‘zini xuddi o‘sha sayyoh kabi nochor his qiladi.

Uchinchi chora o‘lim ne'mati tiriklik ne'matidan nechog‘li afzal ekanini va undan ko‘ra yashamay qo‘ya qolgan ma'qul deguvchilar. Bunday odamlarning ko‘pchiligi hayotning avji yuksak paytida, ma'naviy kuchlari gullab-yashnab turgan kezlarida jonlariga qasd qiladi. Men ham bu choraning eng munosib chora ekanini ko‘rdim va o‘zim ham shunday qilmoqchi bo‘ldim deydi. Hatto Tolstoydek inson ham hayotida davomida bir necha marta mana shunday absurd holatida tushgan.

To‘rtinchi chora ojizlik chorasidir. Bu shundan iboratki, hayotning yovuz narsa ekanini va ma'nisizligini anglab yashashidan hech narsa chiqmasligini oldindan bilsa- da, yashashda davom etaveradi. Bu toifa odamlar o‘lim hayotdan afzalroq ekanini bilishadi, ammo oqilona ish qilishga, ya'ni tezroq yolg‘onga xotima qo‘yib, o‘zlarini o‘ldirishga kuchi yetmaganidan, go‘yo biror narsani kutayotgandek yuraveradilar. Men ham shu toifaga mansub edim deydi. Tolstoy odamlar hayotidan qoniqadigan javobni topa olmagach, endi savoliga javobni dindan izlay boshladi. Dinlar tarixi shuni qat'iy isbot qiladiki, hech qayerda, hech qaysi insonlar jamiyati faqat moddiy ehtiyojlarini qondiribgina hayot kechira olmaydi. Inson to‘la ma'noda umrguzaronlik qilmog‘i uchun vijdon va iymon uning hayotida ustivor bo‘lishi kerak.

Dastlab Tolstoy pravoslav cherkovi qoidalarini, so'ng eng qadimgi dinlar - hind vedalari, konfutsiylik, buddizmdan tortib eng zamonaviy diniy qarashlargacha o‘rganib chiqadi. Nasroniylikdagi ayrim masalalar unga chalkash va tushunarsiz bo‘lib tuyuladi. Masalan:"Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruhga sig‘inaylik" degan iborani tushunmayman deydi va qoniqmqydi. Chunki cherkovlarda bizning qurolimizning muvaffaqiyati uchun ibodatlar qilindi. Nafaqat urushdagi qotilliklarni, balki urushdan keyin sodir bo‘lgan g‘alayonlar vaqtidagi odam o‘ldirishlarni ham shar'iy bir narsa deb e'tirof etishdi deydi.Vaholanki, qotillik har qanday dinning birlamchi asoslariga zid bo'lgan yovuzlik edi. Shu o‘rinda Lev Tolstoyning birinchi o‘zbek advokati Ubaydullaxo'ja Asadullaxo‘jayev bilan yozishmalari esga tushadi. Unda ham aynan shu "Yovuzlikka yovuzlik bilan qarshilik ko'rsatmaslik" haqida fikr aytiladi. O‘zlikni izlash, hayotning asl ma'nosini qidirish yozuvchining faqat "Iqrormoma"sida emas, "Hojimurod",

"Tirilish", hattoki qaysidir ma'noda oilaviy - maishiy asar deb hisoblaydigan "Anna Karenina " asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Va oxirida shunday xulosaga keladi: iymon - inson hayotining ma'nosini bilishdir! Iymonsiz yashab bo'lmaydi. Tolstoy diliga taskin, ko'ngliga orom beradigan birdan bir narsa bor - bu iymon edi. U "men faqat Xudoga ishongan kezlarimdagina yashaganimni esladim" deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L. Tolstoy."Iqrornoma". " Ma'naviyat " nashriyoti. Toshkent - 1998.
2. O. Sharafiddinov. Tanlangan asarlar. ."Sharq" nashriyoti. Toshkent - 2019.
3. I. G'ofurov. Tanlangan asarlar. " Sharq" nashriyoti. Toshkent- 2017.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
5. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
6. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
7. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
8. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.